Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	



KICHIK BIZNES KORXONALARDA SANOAT ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Axmedova Nilufar Shuxratovna

Toshkent arxitektura-qurilish universitet, dotsent, PhD

ORCID ID: 0009-0003-9477-7717

nilufar6444@mail.ru

Amirov Zubaydulla Toir o'g'li

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti,

"Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası katta o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes korxonalarida sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar tahlil etiladi. Jumladan, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va huquqiy omillar hamda ularning o'zaro ta'siri chuqur o'rganiladi. Kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va samaradorlikni yuksaltirishda ushbu omillarning o'zni ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda kichik sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, sanoat ishlab chiqarish, samaradorlik, iqtisodiy omillar, texnologik rivojlanish, raqobatbardoshlik, ishlab chiqarish salohiyati.

Abstract: This article analyzes the key factors influencing the efficiency of industrial production in small enterprises. Particular attention is given to economic, organizational, technological, and legal aspects, as well as their interrelations. The study highlights the role of these factors in enhancing competitiveness, increasing production volumes, and improving overall efficiency in small industrial businesses. Based on the research findings, recommendations are provided for supporting and developing small industrial enterprises.

Key words: small business, industrial production, efficiency, economic factors, technological development, competitiveness, production capacity.

Аннотация: В данной статье анализируются основные факторы, влияющие на эффективность промышленного производства в малых предприятиях. Особое внимание уделено экономическим, организационным, технологическим и правовым аспектам и их взаимовлиянию. Рассматривается роль этих факторов в повышении конкурентоспособности, объемов производства и общей эффективности деятельности малых промышленных предприятий. На основе результатов исследования даны рекомендации по поддержке и развитию малых промышленных предприятий.

Ключевые слова: малый бизнес, промышленное производство, эффективность, экономические факторы, технологическое развитие, конкурентоспособность, производственный потенциал.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlari va iqtisodiy-ijtimoiy beqarorlikning ortib borishi kichik biznes hamda ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha ilg'or tajribalar joriy etilgan davlatlarda bu jarayon ijobiy natijalarga olib kelgan.

Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Gonkong, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanishi ko'plab davlat siyosati va normativ-huquqiy mexanizmlar orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu davlatlar o'z iqtisodiy modellarida



kichik biznesni davlat tomonidan samarali tartibga solishning eng yaxshi usul va vositalarini amaliyotga tatbiq etgan.

Shu bilan birga, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida kichik biznesning davlat ko'magisiz sust rivojlanayotganligi haqidagi ilmiy kuzatuvlar mavjud bo'lib, ushbu masalalar global miqyosda bir qator tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan. Bu esa, kichik biznesni rivojlantirish va ishbilarmonlik muhiti uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat va mexanizmlarni ishlab chiqishni zarur etmoqda.

O'zbekistonda ham kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida kichik biznesning roli ortib borayotgan bir davrda, ushbu sohadagi ko'plab muammolarni bartaraf etish maqsadida 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son, 2019-yil 7-martdagi PF-5687-son, 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-son Farmonlar, shuningdek, 2019-yil 5-fevraldagi PQ-4160-son Qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Ushbu hujjatlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va davlatning iqtisodiy siyosatidagi yangi yondashuvlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son Farmoniga muvofiq, O'zbekistonning xalqaro reyting va indeksdagi o'rnini yaxshilash, biznes muhiti va ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etish nazarda tutilgan.

Mazkur qarorlar biznes sub'yektlari uchun qulay sharoitlar yaratish orqali ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu hujjatlar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda ham muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqola kichik biznes va sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, davlat tomonidan kichik biznesni tartibga solishning zamonaviy usullarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirish yo'nalishida tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan. Maqolada O'zbekiston tajribasi asosida kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga doir dolzarb masalalar yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu yo'nalishda olib borilayotgan nazariy va amaliy izlanishlar xalqaro miqyosda ko'plab iqtisodchilar tomonidan amalga oshirilgan.

Birinchi navbatda, klassik iqtisodiy tafakkur vakillari – A. Smit va J. M. Keynesning nazariy qarashlari kichik tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan rag'batlantirish hamda bozor mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashga oid muhim asoslarni belgilab bergan. A. Smit o'zining "ko'rinmas qo'l" tamoyili orqali kichik biznes sub'yektlarining erkin harakatini iqtisodiy o'sish garovi sifatida talqin qilgan. J. M. Keynes esa davlat aralashuvining ijobiy ta'sirini asoslab, kichik sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash orqali ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligini ta'kidlagan [1].

Y. Shumpeter kichik biznesning yangilik kiritish va innovatsiyalarni joriy etishdagi asosiy rolini alohida ta'kidlagan. U kichik korxonalarni "dinamik iqtisodiy o'sish motorlari" deb atagan. Bu esa kichik sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirishda ilm-fan, texnologiya va yangicha yondashuvlarning ahamiyatini anglatadi [2].

Amerikalik iqtisodchilar R. Xizrich, M. Piter va F. Kotler tadbirkorlik muhiti va kichik korxonalarni boshqarish strategiyalariga oid fundamental tadqiqotlar olib borgan. Ularning ishlari kichik ishlab chiqaruvchilarning marketing siyosati, resurslardan oqilona foydalanish va samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishga qaratilgan [3].

Shuningdek, P. Samuelson va V. Nordhaus o'zining mikro- va makroiqtisodiy modellari orqali ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar – resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish funksiyasi, mehnat va kapitaldan foydalanish koeffitsienti kabi ko'rsatkichlarni nazariy jihatdan asoslab bergan [4].

Rossiyalik olimlardan N. E. Simionova, A. O. Blinov, M. M. Maksimtsev va V. Ya. Gorfinkel kichik biznes faoliyatining huquqiy-institutsional muhitini tahlil qilib, kichik korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini samaradorlikka ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida ko'rsatgan. A. N. Dyatlov va N. V. Vasilenko esa biznes muhiti barqarorligi hamda byurokratik to'siqlarning bartaraf etilishi ishlab chiqarish samaradorligi uchun muhim shartlardan biri ekanligini ta'kidlaydi [5][6].

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan S. S. G'ulomov, M. R. Boltaboev, M. S. Qosimova va B. K. G'oyibnazarovlarning ilmiy ishlari kichik biznesni rivojlantirishda milliy xususiyatlar, davlat siyosati va mintaqaviy rivojlanish farqlari muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Xususan, kichik korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda xususiy mulk shakllarining barpo etilishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi muhim omil sifatida qayd etilgan [7][8].



Bundan tashqari, B. Yu. Xodiev, S. K. Salaev va B. T. Salimovlar tomonidan kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari ekonometrik modellashirish asosida tahlil qilingan bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar – ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, texnologik yangilanishlar, mahsulot tannarxi, ishchi kuchi unumdorligi – ilmiy jihatdan asoslab berilgan [9].

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kesimida olib borilgan H. P. Abulqosimov, I. A. Bakieva va Q. Muftaydinovlarning tadqiqotlari kichik korxonalarning resurs bazasidagi cheklolar, mehnat bozoriga kirishdagi qiyinchiliklar va institutsional infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi [10].

Shuningdek, U. V. G'afurov kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslagan. Sh. I. Mustafaqulov esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda investitsiya muhitini yaxshilash va sarmoyadorlar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimligini alohida ta'kidlaydi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kichik biznes va sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlar va tadqiqot yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, solishtirish, analitik tahlil, shuningdek statistik va kontent tahlil uslublari ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan tartibga solinishi ushbu sohalarda o'zaro ishbilarmonlik muhitining shakllanishini ta'minlaydi. Bunday muhit tadbirkorlar uchun bozordagi vaziyatlarni oldindan taxmin qilish imkonini yaratadi. Bu esa ularning ishlab chiqarish jarayonlari, bozordagi raqobat, investitsiya shartlari va boshqa muhim omillar bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishlariga zamin yaratadi.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning asosiy maqsadi – ishbilarmonlik muhitining barqaror va samarali tarzda shakllanishini ta'minlashdir. Buning uchun davlat quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur:

Huquqiy va ma'muriy sharoitlar yaratish. Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun huquqiy asoslarni shakllantirishda ishtirok etadi. Bu ishbilarmonlarga o'z faoliyatlarini erkin yuritish, ishlab chiqarishni kengaytirish va bozorda samarali raqobatlashish imkonini beradi. Qonunchilik, litsenziyalash, soliq siyosati va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ushbu muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ishbilarmonlikni rag'batlantirish. Davlat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida subsidiya, kreditlar va soliq imtiyozlarini taklif qilishi mumkin. Bunday tashabbuslar tadbirkorlar uchun moliyaviy va tashkiliy yordam sifatida xizmat qilib, ularning faoliyatini yo'lga qo'yishni yengillashtiradi.


Infratuzilma va xizmatlar tizimini yaratish. Ishbilarmonlik muhiti uchun rivojlangan infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi. Davlat jamiyatga oid muhim infratuzilmalarni – transport, aloqa, elektron tijorat, ma'lumotlar bazalari kabi tizimlarni shakllantirish orqali tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan siyosat yuritmoqda.

Ishbilarmonlik muhiti – bu tadbirkorlar va biznes sub'yektlari uchun yaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sharoitlar majmui bo'lib, ularning bozor faoliyatini yengillashtiradi. Uning barqarorligi, asosan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarga bog'liq.

Ishbilarmonlik muhiti ijobiy shaklda yoki rag'batlantiruvchi mexanizmlar orqali shakllanishi mumkin. Agar davlat ishbilarmonlik faoliyatini rag'batlantirib, tadbirkorlarga soliq imtiyozlari yoki kreditlar orqali ko'mak bersa, bu rag'batlantirish shaklida ko'riladi. Agar esa davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatlarning maqsadi tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan bo'lsa, bu ijobiy ishbilarmonlik muhitini shakllantiradi.

O'zbek iqtisodchilari Y. Abdullaev va F. Karimov kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar haqida fikr yuritir ekan, quyidagicha ta'kidlaydilar: *“Tadbirkorlik sharoitlari deganda, eng avvalo, iqtisodiy faoliyatdagi erkinlikni tushunamiz. Erkinlik bor joyda bunyodkorlik, ijodkorlik zavqi jo'sh uradi...”* [12]. Ularning ushbu fikri tadbirkorlar va biznes sub'yektlari faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ma'lum ishbilarmonlik muhiti zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Y. Abdullaev va F. Karimovning fikriga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatida mavjud erkinlik nafaqat ichki omillar, balki tashqi muhit omillari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu jihat biznesning rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga tas'ir etuvchi omillar.

Korxona faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun uning ichki va tashqi muhitlarini tahlil qilish zarur. Ichki muhitda kompaniyaning tashkiliy tuzilishi, resurslar va xodimlarning samarali ishlashi kabi omillar muhim rol o'ynasa, tashqi muhitning ta'siri ham katta ahamiyatga ega. Tashqi muhit omillarini tahlil qilishda iqtisodiy va siyosiy vaziyat, qonunchilik bazasi hamda demografik omillarni hisobga olish zarur.

Y. Abdullaev va Sh. Yuldashevlar o'z ilmiy asarlarida "ishbilarmonlik muhiti" tushunchasini bevosita ishlatmagan bo'lsalar-da, korxonaning tashqi muhiti "...o'ta keng va ko'pqirrali..." ekanligini ta'kidlab, ularning tarkibida eng muhim tashqi omillarni quyidagi guruhlariga ajratadilar: [12]

- Iqtisodiy muhit – iqtisodiy omillar, bozorning umumiy holati, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar biznes faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar, ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun juda muhimdir.

- Bozor kon'yunkturasi – bozorning talab va taklif o'zgarishlari, yangi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj va raqobat muhitining shakllanishi tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir qiladi.

- Siyosiy vaziyat – siyosiy barqarorlik, hukumatning iqtisodiy siyosati va investitsion muhiti tadbirkorlik faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Siyosiy vaziyatdagi o'zgarishlar kichik biznesni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratishi yoki xavflar tug'dirishi mumkin.

- Huquqiy muhit – biznesni boshqarish, himoya qilish va huquqiy qonunlarni amalga oshirishdagi o'zgarishlar biznesning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur sohada yaratilgan qonunchilik bazasi tadbirkorlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi.



• Fan-texnika taraqqiyoti – innovatsion texnologiyalar, ilm-fan va texnika sohasidagi yangiliklar biznesning samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi. Yangi texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar imkoniyatlarni kengaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

• Ijtimoiy-madaniy muhit – jamiyatning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari, iste'molchilarning xulq-atvori va ehtiyojlari ham kichik biznesning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat, ekologik masalalar va madaniyatdagi o'zgarishlar tadbirkorlik faoliyatini shakllantiradi.

• Tabiiy-geografik sharoitlar – tabiiy resurslar va geografik joylashuv biznes faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqlim, tabiiy ofatlar va geosiyosiy omillar o'zgaruvchan ishbilarmonlik muhitini belgilaydi.

• Demografik vaziyat – aholining yoshi, ta'lim darajasi, urbanizatsiya darajasi va boshqa demografik omillar tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu omillar bozordagi talab va resurslarni ta'minlash imkoniyatlariga ta'sir qiladi.

Tadbirkorlik faoliyati va kichik biznes muvaffaqiyati tashqi omillarga kuchli bog'liqdir. Y. Abdullaev va F. Karimovlarning ta'kidlashicha, iqtisodiy erkinlik va uni shakllantirishga imkon beruvchi ishbilarmonlik muhiti nihoyatda muhimdir. Biroq, bunday muhitni shakllantirishda tashqi omillar – iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va tabiiy omillarga alohida e'tibor qaratish zarur. Tashqi muhitni puxta tahlil qilish biznes subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishiga ko'maklashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes korxonalari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, ularning sanoat sohasidagi faoliyati iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mahalliy resurslardan samarali foydalanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi muhitdan kelib chiqadigan murakkab tizimli bog'liqliklarga ega. Ichki omillar sirasiga mehnat unumdorligi, texnologiyalar, xomashyo bilan ta'minlanish va boshqaruv sifati kiradi. Tashqi omillar esa iqtisodiy barqarorlik, huquqiy baza, infratuzilma hamda moliyaviy resurslar kabi omillarni o'z ichiga oladi. Shu sababli sanoat sohasida kichik biznes faoliyatini samarali tashkil etishda ushbu omillarni tizimli baholash va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilayotgan yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

– Mehnat unumdorligini oshirish uchun doimiy o'quv va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, korxona xodimlari uchun texnik va boshqaruv sohalarida muntazam treninglar o'tkazish.

– Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqarish uskunalarini yangilash va avtomatlashtirishga yo'naltirilgan imtiyozli kreditlar hamda davlat grantlarini ajratish.

– Ta'minot zanjirida barqarorlikni ta'minlash uchun xomashyo va materiallar yetkazib berishdagi uzilishlarni bartaraf etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzishni yo'lga qo'yish.

– Huquqiy va institutsional muhitni yaxshilash orqali kichik biznes subyektlari faoliyatida soliq va nazorat yuklamalarini optimallashtirish hamda huquqiy aniqlikni ta'minlash.

– Moliyaviy manbalarga kengroq kirish imkoniyatini yaratish, jumladan, kichik sanoat korxonalari uchun maxsus subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va venchur fondlar vositalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.

– Innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni rag'batlantirish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish hamda biznes-inkubatorlar faoliyatini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2 т.; Пер. с англ. Изд. 2-е. –М.: ЛЕНАНД, 2017. – 864 с.
2. Шумпетер Й. А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. –М.: Эксмо, 2007, – 864 с
3. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. –М.: 1991. – 220 с.; Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. / Пер. с англ. –М.: Издательский дом «Вильямс», 2007. – 656 с. ил – Парал. тит. англ.;
4. Пол А. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика: Пер с англ. –М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. –800 с.: ил.;
5. Симионова Н. Е. Понятие бизнес-среды предприятия. <http://www.involveman.ru/kars-572-1.html> // involveman: привлечение менеджмента. (Электронный ресурс).;
6. Блинов А. О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. – 2-е изд. –М.: «Ось-89», 1998. – 336 с.;
7. Дятлов А.Н. Общий менеджмент: концепции и комментарии: Учебник. / А. Н. Дятлов, М. В. Плотников, И. А. Мутовин. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 400 с.; Василенко Н.В. Институциональная среда организаций: характеристики и уровни регулирования. URL: <http://www.vivakadry.com/20.htm> (дата обращения: 20.06.2018).
8. Фуломов С.С. Тadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2002. – 365 б.;



9. Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Ғойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Отажонов Ш.И. Кичик бизнес ва тадбиркорлик: Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2012. – 274 б.;
10. Ходиев Б.Ю., Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2010. 25 б.
11. Абулқосимов Ҳ.П. ва бошқ.:Ижтимоий-иқтисодий жараёнларни бошқариш. –Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2007. -544 б.;
12. Ғафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Дисс... 08.00.13 – Тадбиркорлик ва кичик бизнес иқтисодиёти; 08.00.01 – Иқтисодиёт назарияси (иқтисодиёт фанлари) –Т.: 2017.
13. А.Абдуллаев ва бошқ.: Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. –Т.: «Fan va texnologiya», 2005. – 444 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>